

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ  
DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI  
RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**uluslararo ilmiy-nazariy  
konferansi materiallari**

**Mas'ul muharrirlar:**  
**Shuhrat SIROJIDDINOV,**  
filologiya fanlari doktori, professor  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili  
va adabiyoti universiteti rektori

**Zokirjon MASHRABOV,**  
geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, professor,  
Bobur nomli xalqaro jamoat fondi raisi

**Tahrir hay'ati:**

Sirojiddin Sayyid (O'zbekiston), Elisabetta Ragagnin (Italiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Tanju Oral Seyhan (Turkiya), Darya Jigulskaya (Rossiya), Farhad Rahimi (Eron), Vahob Rahmonov (O'zbekiston), Hamidulla Dadaboyev (O'zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Islam Jemeney (Qozog'iston), Hamidulla Boltaboyev (O'zbekiston), Qosimjon Sodiqov (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Ne'matilla Otajonov (O'zbekiston), Abdumajid Madraimov (O'zbekiston), Nusratulla Jumaxo'ja (O'zbekiston), Omonulla Bo'riyev (O'zbekiston), Sultonmurod Olim (O'zbekiston), Iqboloy Adizova (O'zbekiston), Burobiya Rajabova (O'zbekiston), Shuhrat Hayitov (O'zbekiston), Odina Jamoldinova (O'zbekiston), Zulxumor Xolmanova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Ziyoda Teshaboyeva (O'zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Otabek Jo'raboyev (O'zbekiston), Marg'uba Abdullayeva (O'zbekiston), Oysara Madaliyeva (O'zbekiston), Hilola Nazirova (O'zbekiston), Nodirbek Jo'raqo'ziyev (O'zbekiston), Sabohat Bozorova (O'zbekiston,) Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 25-yanvardagi "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-20-sonli Qaroriga ko'ra o'tkazilayotgan "Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o'rni" mavzusidagi uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari jamlangan. To'plamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyati, adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyot rivojidagi o'rni, adabiy-lingvistik, tarixiy-sotsiologik tadqiqi, shuningdek, Bobur va boburiylar siyosining zamonaviy adabiyotdagi badiiy talqini, adabiy ta'sir va izdoshlik masalalariga bag'ishlangan maqolalar o'rin olgan. Kitob filolog mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljalangan.

*Mualiflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

**THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND  
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK  
LANGUAGE AND LITERATURE**

**UZBEKISTAN WRITERS UNION**

**BABUR INTERNATIONAL PUBLIC FOUNDATION**

**The Proceedings of the International Scientific-  
Theoretical Conference**

**«THE IMPACT OF ZAHIR AD-DIN  
MUHAMMAD BABUR'S LEGACY ON THE  
ADVANCEMENT OF EASTERN  
STATEHOOD AND CULTURE»**

**Tashkent - 2023**

**Chief editor:**

**Shuhrat SIROJIDDINOV,**  
*Doctor of Philology, Professor*  
*Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of*  
*Uzbek Language and Literature*

**Zokirjon MASHRABOV,**  
*Professor*  
*Chairman of Babur International Public Foundation*

**Editorial Board:**

Sirojiddin Sayyid (Uzbekistan), Elisabetta Ragagnin (Italy), Almaz Ulvi (Azerbaijan), Tanju Oral Seyhan (Turkey), Darya Jigulskaya (Russia), Farhad Rahimi (Iran), Vahob Rahmonov (Uzbekistan), Hamidulla Dadaboyev (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Islam Jemeney (Kazakhstan), Hamidulla Boltaboyev (Uzbekistan), Kosimjon Sodikov (Uzbekistan), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Ne'matilla Otajonov (Uzbekistan), Nusratulla Jumaxo'ja (Uzbekistan), Abdumajid Madraimov (Uzbekistan), Omonulla Buriyev (Uzbekistan), Sultomurod Olim (Uzbekistan), Ikboloy Adizova (Uzbekistan), Burobia Rajabova (Uzbekistan), Shuhrat Hayitov (Uzbekistan), Odina Jamoldinova (Uzbekistan), Zulkumor Xolmanova (Uzbekistan), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Ziyoda Teshaboyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan), Karomat Mullaxujayeva (Uzbekistan), Otabek Juraboyev (Uzbekistan), Marguba Abdullayeva (Uzbekistan), Oysara Madaliyeva (Uzbekistan), Hilola Nazirova (Uzbekistan), Nodirbek Jurakuziyev (Uzbekistan), Sabohat Bozorova (Uzbekistan), Ozoda Tojiboyeva (Uzbekistan), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekistan)

In commemoration of the 540<sup>th</sup> anniversary of Zahir ad-Din Muhammad Babur's birth, a luminary poet, scholar, and statesman, we are pleased to present a compendium of erudite contributions derived from the international academic conference titled "The Impact of Zahir ad-Din Muhammad Babur's Legacy on Eastern Statehood and Culture." This compilation explores various aspects of Babur's life and achievements, including his contributions to literature and scholarship, as well as linguistic and historical investigations. This volume is intended for scholars, researchers, students, and a wider audience interested in Babur's enduring influence on Eastern culture and governance.

*Note: Variations in author views and article titles may exist due to editorial preferences.*

Allomiy "Bu rasmlarni buyuk Yevropa musavvirlari va ustod Kamoliddin Behzod asarlari bilan teng qo'yish mumkin" - deb yuqori baho bergan edi.

### **Adabiyotlar**

Нисорий Ҳасанхўжа. 1993. *Музаккири аҳбоб*. Тошкент: Халқ мероси.

Захириддин Муҳаммад Бобур. 2002. *Бобурнома*. Тошкент.

Захириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. 2014. Бош муҳаррир А. Аъзамов. Тошкент: "Шарқ" НМИУ.

Захириддин Муҳаммад Бабур. *Бабуриды*. 2016. Библиография. Автор-составитель Ш.Ш. Рустамходжаев. Москва: Изд-во восточной литературы.

Машрапов З., Мадраимов А. 2022. *Темурий ва Бобурийлар санъати*. Тошкент: "Шарқ" НМИУ.

## **HUKMDORLARGA O'RNAK BO'LADIGAN, DUNYO OLIMLARI HAVAS QILADIGAN UMR E'TIROFI**

Mullaxo'jayeva Karomat Toshxo'jayevna\*

### **Annotation**

Bobur va boburiylar sulolasining dunyo madaniyati taraqqiyotidagi o'rni ulkan tarixiy ahamiyatga ega. Maqolada Bobur va uning avlodni tomonidan amalga oshirilgan ishlarning Hindiston, Yevropa va rus olimlari tomonidan e'tirof etilishi hamda o'rganilishi, boburiylar sulolasi vakillari hayot yo'lining muayyan ijodkorlar asarlari uchun muhim manba sifatida xizmat qilishiga oid fikr-mulohazalar o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** *Bobur, Hindiston, avlod, fazilat, qo'lyozma, olim, yozuvchi.*

## **ACKNOWLEDGING A LIFETIME THAT SETS AN EXAMPLE FOR RULERS AND INSPIRES THE WORLD'S SCIENTISTS**

### **Annotation**

This article explores the historical significance of Babur and the Babur dynasty in shaping world culture. It delves into the acknowledgment and examination of their contributions by Indian, European, and Russian scholars. Additionally, it highlights the influence of the Babur dynasty's life narratives on artistic endeavors, underscoring their importance as source material for artists.

**Key words:** *Babur, India, generation, virtue, manuscript, scientist, writer.*

Dunyo tarixida katta imperiyani tuzib, uni adolat bilan boshqarish mumkinligini ko'rsatolgan, avlodini o'zi boshlagan ishni davom ettirishiga munosib qilib tarbiyalagan Zahiriddin Muhammad Bobur turkiylarning katta tarixdagi o'rni mustahkamlanishiga muhim hissa qo'shgan ulug' siymolardan.

Hindistonning katta siyosiy arbobi Javoharla'l Neru "Jahon tarixiga nazar" nomli mashhur asarida Hindiston tarixinining XVI asrda kechgan voqealarini sarhisob qilar

\* Dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, kmullahodjayeva@gmail.com

ekan, Bobur va boburiylarga alohida baho beradi. Neruning yozishicha, bu Buyuk mo'g'ullar imperiyasining (Yevropada Boburga nisbatan "Buyuk mo'g'ul" degan yanglish qarash natijasida ba'zi kitoblarda shunday ta'rif beriladi – K. M.) dovrug'i butun Yevropaga tarqalgan qudrat va shon-shuhrat davri edi. Bobur o'zigacha o'tgan hukmdorlarning eng ma'rifatparvari va eng dilbaridir. "Italiyada va umuman Yevropada Uyg'onish davrida adabiyot va san'atni sevgan avanturist podsholar ko'p o'tgan – deb yozadi J. Neru. – Ammo ular prinsipsiz, ig'voga moyil hukmronlar edi, dushmanlariga qarshi kurashda zahar solingan qadah va xanjar ishlatuvchi mustabidlar edi. Ritsar tabiatli Boburni bu hokimcha sultonlar qatoriga qo'shish haqiqatga zid bo'lur edi" [Hepy 1981, 36]. Neruning ushbu fikrlari Boburning hind xalqi tarixi, uning boy urf-odatlariga o'ta hurmat bilan qaraganini yana bir bor yodga soladi.

Javoharla'l Neru Boburning Hindistonda bor-yo'g'i to'rt yil hukmronlik qilgani, Hindistonni oxirigacha o'rganib ulgurmaganini aytar ekan, buni "Boburnoma"da muallifning Hindistonga bergan dastlabki ta'rifi va u bilan tanishgandan keyingi bahosi bilan asoslaydi. Chindan, Bobur kam yashadi, ammo shu qisqa vaqt ichida Hindiston bilan, xalqining moddiy va ma'naviy hayoti bilan yaqindan tanishishga ulgurdi. Ko'p ishlarni amalga oshiroldi, ammo qolganlariga vaqt kerak edi. Bevafo umr esa bunga imkon bermadi. Boburning ishlarini uning avlodlari davom ettirdi. Ularning ishlariga Boburning vasiyatlari ko'mak berdi. Boburning keyingi yillari topilgan maxfiy vasiyatnomasida butun e'tiborni sultonlikning mustahkam tutishga qaratish haqida so'z boradi: "... *Ey farzandim, Hindiston mamlakati turli mazhablardan ma'mur bo'lgan. Allah taolo Sizga buni karomat etdi. Siz mazhablarni yomon ko'rishdan dilingizni pok tuting. Har mazhabning tariqasiga (yo'liga)adolat qiling. Xususan, Hindistonning qalbini qo'lga kiritaman desangiz, sigir so'ymoqdan o'zingizni tiying. Bu yaxshililingiz evaziga shu viloyat xalqining qalbi Sizga yaqin bo'ladi. Qo'lingiz ostidagi har qavmning ibodatgohlarini va muqaddas joylarini xarob etmang. Shunday odillikni ixtiyor qilingki, podishoh ra'iyatdan va ra'iyat podishohdan osuda bo'lsin. Islomning taraqqiyoti ehson qilichidan yaxshiroq bo'ladi, zulm tig'idan emas. Sunniy va shia o'rtasidagi janjallardan ko'zingizni yuming. Agar bundan ko'z yummasangiz, islom zaiflashishi mumkin. Ra'iyatdagi turli qalblarni arbaai anosir (to'rt unsur) bilan mahkam tuting. Saltanatning jismi turli marazlardan tinch bo'lsin. Podishohlik ishlarini puxta qilish uchun hazrat Amir Temur Sohibqironning ishlarini ko'z oldingizda tuting...*" [https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/zarvaraqlar-boburning-maxfiy-vasiyatnomasi.html].

Bobur dunyodagi hukmdorlarga o'rnak bo'ladigan, dunyo olimlari havas qiladigan umrni yashab o'tdi. U olib borgan janglardan so'ng o'limning, qullikning azob-uqubati emas, balki yaratishning, yuksalishning nafasi ufurib turdi. Bobur qayerga bormasin, qaysi yurtni qo'lga kiritmasin, u yerni o'z vatanidek sevoldi – obod qildi, xalqi uchun farovonlikni istadi va shu yo'lda kurashdi. Uning shaxs sifatidagi mukammal qiyofasi har bir a'molida namoyon edi. Bular barchasining bizga yetib kelishida esa "Boburnoma"dek ulkan manbaning o'rni beqiyos. Ko'pincha, esdaliklar, xotiralar deb nomlaydiganimiz "Boburnoma"ni sinchiklab o'rgansak, unda juda katta ilmiy iqtidor egasining kuzatishlari, mulohazalari va xulosalarini ko'ramiz.

Agar Boburning faoliyatiga nazar tashlasak, u 11-12 yoshlarida otga mindi va umrining oxirigacha undan tushmadi – umri jang-u jadallarda o'tdi. Boburning shaxs sifatidagi qiyofasi, harbiy yurishlari, davlatchilik siyosatidagi muvaffaqiyatlari hamda

“Boburnoma”dagi ko’plab ma’lumotlar Boburning fenomenal qobiliyat sohibi ekanligini ko’rsatadi. Uning muxlislarida bot-bot paydo bo’ladigan “Bobur qachon o’qib-o’rgandi, qachon bunday shoir bo’lib ulgurib, “Boburnoma”dagi bunday maftunkorlik qayerdan?” kabi savollarning ba’zilariga shu asarning o’zidan javob topilsa, qolganlarining hammasi undagi fenomenal qobiliyat bilan bog’liq, degan xulosaga kelish mumkin. Ammo Alloh bergen bunday qobiliyatni asrab qolish, o’stirish, kamolotga yetkazish shaxsning ishi – faqat uning o’ziga bog’liq. Shu ma’noda, Bobur dunyoga kelib, o’z missiyasini to’g’ri anglagan va aniq belgilab ololgan insonlardan biridir. *“Boburnoma”ning mukammal nusxalaridan birini ko’chirgan kotib Boburning yaxshiliklari haqida gapirib, ularni yozib tugatish mahol ekanligini ta’kidlar ekan, bu insonda mujassam bo’lgan sakkiz sifat – fazilatni sanaydi, bular: hamisha yuksak muvaffaqiyatlarga erishishi, uning himmati baland inson ekanligi, viloyat olish, viloyat saqlashdagi ustunligi, obodonchilikka – farovon turmushga intilishi, Tangri taolo bandalariga turmush kengchiliginı istashi, lashkarning ko’nglini ola bilishi va adolatpeshaligidir* [Бобур 2008, 285].

Dunyo olimlarining Boburga ehtiromi, unga berayotgan bahosi zaminida mana shu fazilatlarning mujassamligini ko’ramiz. Bugun bizning bu zotni ulug’lashimiz, unga muhabbatimiz uning ayni shu fazilatlari tufayli, deb aytta olamiz. Ingliz tarixchisi Eduard Holden bu borada: “...Bobur fe’li-sajiyasiga ko’ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatlari inson deb bitib qo’yilgan”, – degan edi.

Bobur shaxsining mukammalligi va bu insonga muhabbatning ildizlari mana shu sifatlarning tajassumida bo’lsa, ajab emas. Sharqshunos olim Aleksandr Samoylovich bu zot oldida faqat uning vorislari – o’zbek sharqshunoslari emas, balki dunyo olimlarining burchdorligi haqida yigirmanchi asrning boshlarida shunday yozgan edi: “Yevropada “buyuk mo’g’ul” deb atash rasm bo’lgan, haqiqatda esa “buyuk turk” deb ataydiganimiz “O’rta Osiyolik Yuliy Sezar” – Hindiston imperatori Zahiriddin Muhammad Boburning asarlarini nashr etish, tarjima qilish va o’rganish ingliz va rus sharqshunoslari uchun burch, sharaf va saodatdir” [Самойлович 2005, 698]. Bu Boburga, uning ijodiga dunyo olimlarining munosabatini haqqoniy ifodalagan fikr edi.

Ammo Boburni o’rganish ancha oldinroq boshlangan.

Bobur shaxsiga qiziqish, uning asarlarini o’rganish inglizlarning Hindistondagi faoliyati bilan chambarchas bog’liq. Hindistonga kelgan inglizlar Bobur muvaffaqiyatlari, boburiylar amalga oshirgan ulkan ishlarning asoslari bilan albatta qiziqishgan. Diplomatlar, tarixchilar, sharqshunoslari bu yerdagi manbalarni o’rganish asnosida Bobur asarlariga ham duch kelgan. “Boburnoma”, Bobur devoni, “Aruz risolasi”, “Risolai validiyya”, “Mubayyin” asarlari ichida, ayniqsa, “Boburnoma” barchaning e’tiborini tortgan. Keyinchalik, Neru e’tirof etganidek, Boburning g’alabasini nafaqat Dehli sultonligining zaifligi, balki uning o’sha davrda Hindistonda hali ma’lum bo’lmagan yangi, takomillashtirilgan artilleriya turiga ega bo’lganligi bilan ham izohlaganlar.

Ular endi dunyo ahlini Bobur shaxsi bilan tanitishga, “Boburnoma”dan olgan zavqini dunyodagi boshqa kishilar bilan baham ko’rishga intilardilar. Chunki bu bitikdagi ma’lumotlar, tuyg’ularni bir kishining o’z yuragida saqlab turishi qiyin. Dunyoning kemtikligini to’ldirishga urinib yashayotgan har qanday ziyoli Bobur shaxsi bilan, uning asarida bitilganlardan topgani – hayratlarini o’zgalarga ularish bilan zavq oladigan bir davr boshlangandi, go’yo. Ayniqsa, “Boburnoma” tarjimalari asnosida dunyoning katta qismi Bobur bilan tanisha boshladi. Bobur bilan birga uning

avlodlari hayot tarzi, faoliyati, asarlarini uzviy tadqiq etish yo'liga o'tildi. Jumladan, "Boburnoma"ni o'rganganlarning ko'pchiligi "Humoyunnomma" (Gulbadanbegim) va "Akbarnomma" (Abulfazl Allomiy)ni ham o'rganardilar. Bu asarlar ham "Boburnoma" kabi boshqa tillarga, jumladan, ingliz tiliga tarjima qilingan. Boburiylar imperiyasi haqida so'z ketganda, albatta, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shohjahon, Avrangzeb nomlari va ularning tarixdagi ishlari tilga olinadi.

"Boburnoma" turkiy tildan, ko'proq forsiy tildan Yevropa tillariga tarjima qilindi. Asar ilk bor Boburning zamondoshi Shayx Zayn tomonidan forsiyga o'girilgan. Albatta, mazkur tarjima mukammal emas. Unda tarjimon ishga erkin yondashib, asardagi muayyan davrnigina (932–933/1525–1526-yil voqealarini) tarjima qilishga muvaffaq bo'lgan. Ushbu tarjima asar nusxalarining Britaniya muzeyida (ulardan birini biz bilgan tarixchi Xondamirning nabirasi ko'chirgan), Parij Milliy kutubxonasida saqlanishi, yevropalik sharqshunoslarning kataloglaridan joy olishi Bobur va u bitgan asarlarning bundan bir necha asrlar oldin dunyoni keza boshlaganini, o'z muxlislarini topganini ko'rsatadi. "Boburnoma" ana shu ilk tarjimadan boshlab dunyo keza boshladi. Albatta, Bobur bu asarini ko'chirib, o'z yaqinlariga jo'natgani haqida ham ma'lumotlar qoldirgan. Lekin bu forsiy tarjima ana shu paytlari ziyolilar ko'p bahramand bo'lgan tilda asarning umrini uzaytirishni boshlab bergen edi. Keyinchalik "Boburnoma" yana tarjima qilindi. Ayniqsa, Akbarshoh davrida Mirza Abdurahim ibn Bayramxonning forsiyga o'girgan (1589-y.) ancha mukammal nusxasi asarning ingliz (1826-yili Uilyam Erskin) va nemis (1928-yili Amadeus Kayzer) tillariga tarjima qilinishi uchun manba bo'lib xizmat qildi (boshqa ingliz olimlari tomonidan qisqartirilgan tarjimalar ham shu manba asosida bajarilgan).

Ammo "Boburnoma"ni asliyatdan tarjima qilgan ingliz olimlari ham borki, ular o'z tarjimasida yoki Bobur haqida yozganlarida bu shaxsga, uning avlodiga bo'lgan muhabbatini yashirmaydi. Jumladan, Hindistonga turmush o'rtog'i – sharqshunos-tarixchi va tarjimon Henri Beverij bilan birga kelgan Annet Syuzanna Beverij xonim dastlab bu yerda ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanadi. Bobur va boburiylarga qiziqishi uning turkiy (eski o'zbek tilini) va forsiy tillarni o'rganishga ishtiyoqini oshirib, xonimga ilhom beradi. Beverij xonim dastlab Gulbadanbegimning "Humoyunnomma" asarini (forsiydan) ingliz tiliga o'giradi va Angliyada 1902-yili chop ettiradi. Uning turmush o'rtog'i Henri Beverij esa xuddi shu yili "Akbarnomma"ni ingliz tiliga tarjima qilgan, Beverij xonimga turkiy tilni yaxshi bilgani uchun "Boburnoma"ning Haydaroboddagi nusxasini topib, tarjima qilish uchun topshirgan edi.

Uzoq yillik mashaqqat evaziga dunyo yuzini ko'rgan bu tarjima-asar – ingliz tilidagi "Boburnoma" "Boburga bag'ishlanadi" deb boshlangan so'zlar bilan 1921-yili nashr qilinadi. Inglizzabon muxlislar "Boburnoma"ni undan keyin ham ko'p bor tarjima qilishgan. Ularning barchasiga xos muhim xususiyat Boburga va uning avlodiga bo'lgan muhabbat edi. Boburning shoh va shoir sifatidagi qiyofasi ayniqsa ko'pchilikni o'ziga rom qilgan. Bu – bir-biri bilan uyg'unlashishi qiyin bo'lgan fazilatlarning bir insondagi tajassumi ularning tasavvuridagi yangi bir dunyoni vujudga keltirgan edi. Ayni shu jihat endi tarjimalar orqali Boburni tanigan, uning dunyosini tasavvur qila boshlagan va bularni o'zining qalb prizmasidan o'tkazgan ijodkorlarning asarlarida namoyon bo'la boshladi. Ulardan biri ingliz adibi Flora Anna Stil qalamiga mansub "Jahongashta hukmdor" ("King-Errant") asaridir.

Asar muallifi Flora Anna Stilning faoliyati ham Beverij xonimnikiga o'xshab ketadi. Angliyada tug'ilib voyaga yetgan Flora Anna Stil 1867-yili Hindistondagi Buyuk Britaniya qirolligi fuqarolik xizmati a'zosiga turmushga chiqib, hayotining keyingi yigirma yilini Hindistonda, Panjobda o'tkazadi. Shu bois uning asarlari asosan Hindiston va uning tarixi haqida. U mahalliy hind tilini mukammal o'rganib oladi. Erining sog'lig'i yomonlashishi sababli Stil xonim uning ko'pgina majburiyatlarini zimmasiga olishga majbur bo'ladi. Mahalliy maktablarni nazorat qilib, Hindistonda ta'lim darajasi oshishiga o'z hissasini qo'shadi. Uning bu sohadagi faoliyati va hindistonlik ayollarning bilimini oshirishga bo'lgan e'tibori uni mahalliy xalqqa yaqinlashtiradi hamda ularning madaniyati va turmush tarzini batafsil o'rganishiga imkon beradi.

1889-yili Stil xonim oilasi bilan Buyuk Britaniyaga qaytadi va umrining oxirigacha (1929-yil) o'sha yerda o'z faoliyatini davom ettiradi.

"Jahongashta hukmdor" asarini Flora Anna Stil umrining so'nggi yillarida yozgan. U Boburning hayoti, uning asarlari, xususan, "Boburnoma" va "Humoyunnoma" dan ta'sirlanib yozilgan realistik badiiy asardir.

U asarida Boburni nozik qalbli, ta'sirchan inson, betakror ijodkor, go'zal xayolot sohibi, shu bilan birga buyuk davlat asoschisi va qudratli hukmdor sifatida tasvirlab bera olgan.

Muallif o'z asariga bitgan so'zboshida quyidagilarni yozadi:

*"Mazkur kitob roman ham, tarixiy asar ham emas. Bu asar bir insonning o'zi yozib qoldirgan xotiralaridan olingan umr sahifalaridir."*

*"Chilangar, tikuvcchi, jangchi, dengizchi, olijanob inson, dorishunos, dehqon...". Bu kabi ta'riflarni behisob davom ettirish mumkin.*

*Bu asar qahramoni o'zida shu kabi ko'plab xislatlarni mujassam etgan. Zero, Bobur nomi bilan tanilgan Zahiriddin Muhammad – Hindiston hukmdori, biz yanglish "Buyuk Mo'g'ullar" deb ataydigan sulolaning asoschisi – bir vaqtning o'zida shoir, rassom, jangchi, olijanob inson, bastakor, qalandar va hukmdordir.*

U XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida hech qaysi inson boshidan kechirmagan sarguzashtlarga boy umrni yashab o'tdi va o'z kechinmalarini qog'ozga tushirib bordi.

*Men mana shu yozuvlarning har bir satrini qayta-qayta o'rganib, ba'zan o'zim lozim ko'rgan tafsilotlarni kiritib, o'zining fazilatlari-yu kamchiliklari, muvaffaqiyatlari-yu mag'lubiyatlarini ochiq-oydin va shu bilan birga tengsiz humor va g'urur hissi bilan yozib borgan yoqimli, ko'p qirrali va ta'sirchan ko'ngil sohibi qiyofasini bekam-u ko'st ochib berishga harakat qildim..."* [Steell 1912, I-3].

Muallif Boburning ruhiy olamini, qalbida kechayotgan kechinmalarini tasvirlashga harakat qiladi. Natijada dilkash bir asarning dunyoga kelishiga muvaffaq bo'ladi. Asarning janri haqida so'z ketganda, muallifning o'zi aytganidek, uni qaysi janrga mansubligi haqida ham aniq xulosaga kelish qiyin. Tasvirlanayotgan voqealar ko'lami, qahramonlar va personajlarning adadi, olib chiqilayotgan masalalar asarni sarguzasht qissadan kattaroq ekanligini ko'rsatadi. Yozganlarining nazariy tomonlariga parvo ham qilmagan bu muallifning yuragi Bobur shaxsi, u tasvirlagan ulkan bir olamning asiri edi. Boburning muhabbat haqida yozar ekan, u xayoliga, tasavvuriga erk beradi, hatto o'zi anglab tursa-da, o'zi o'ylab topgan badiiy to'qimalardan voz kecholmaydi va so'zboshida shunday yozadi: "Billur kosa voqeasi va Bobur hayotining so'ngida Mohim ismli ayolga uylanishi badiiy to'qima mevasidir. Men

*bu voqealarni asarga kiritishni Bobur va uning amakivachchasi Ma'suma o'rtasida bo'lib o'tgan, ming afsuski, qisqa davom etgan ishqiy munosabatlarining shubhasiz mevasi sifatida ko'rsatmoqchi bo'ldim. Chunki Bobur, avvalambor, juda mehribon inson bo'lgan. Ishonamanki, mening xayolotim qahramonim hayotining umumiy mazmuniga to'g'ri keladi. Agarda to'g'ri kelmasa, ishonchim komil, u meni kechiradi. Chunki u hayoti davomida shunchalik ko'p narsalarni (ishlarni) kechirganki, hayotidan so'ng ham o'zining ashaddiy muxlisasiga gina saqlamaydi... ” [Steell A.F. 1912, 1912, I-3].*

Ingliz tilida va boshqa yevropa tillarida Bobur haqida juda ko'p asarlar yaratilgan. Ularning muayyan qismi badiiy asarlar. Shuningdek, ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar ham talaygina. Bu asarlardan bir qanchasi bugun o'zbek kitobxonlariga yetib borgan.

Sharq adabiyoti va san'ati, xususan, boburiylar faoliyatiga ham alohida mehr bilan yondashgan, uni chuqur o'rgangan olimlardan biri – Anna Mariya Shimmeldir. Shimmel xonim Sharq adabiyotini irfon bilan bog'lab tekshirar ekan, “Buyuk mo'g'ul imperiyasi: tarix, san'at va madaniyat” asarida Boburning hayot yo'lini, islam va uning g'oyalari bilan bog'lab o'rghanadi. Bobur va avlodlarining jahon tamaddunidagi xizmatlariga nazar tashlagani holda shaxsiy sifatlarini ulug'laydi.

Umuman, dunyo olimlarining Boburga, boburiylarga nisbatan e'tibor qaratishiga sabab bo'lgan omillar juda ko'p. Xususan, Boburning Humoyunga jonfidoligi ular orasida muhim o'rinni tutadi. Va bu olижанобликning yuksak nuqtasi sifatida baholanadi. Chunki ayni shu hodisa Boburning bor-u yo'g'ini – butun borlig'ini rost namoyon etgan hodisa edi. “Boburnoma”da bayon qilingan voqealar ortida turgan muallif – Bobur shaxsi shu tarzda o'zgalarga qalbiga kirib boraveradi. Dunyo boburshunoslari aynan “Boburnoma” uchun – unda o'z ifodasini topgan katta tarix uchun Boburdan hamisha minnatdor. Tarix Bobur va boburiylar qurdirgan katta-katta me'moriy obidalarning guvohi. Ularning katta qismi turkiylarning tarixiy missiyasini bo'y-basti bilan ko'rsatib turibdi.

Anna Mariya Shimmel asariga yozilgan so'zboshida, jumladan, shunday deyilgan: “Mo'g'ul imperiyasi Hindiston tarixidagi eng qudratli Islom imperiyasi edi va u asrlar davomida G'arbning xayolida tasavvur qilib bo'lmaydigan darajadagi xazinalar mo'jizasi sifatida yashab kelardi. Tojmahalning hayratlanarli go'zalligi buning eng yorqin ramzidir. Bunday go'zal madaniy tarix g'arbliklarning bu mamlakat haqidagi ekzotik va sirli tasavvurlarini sochib yubordi, lekin ularning madaniy va badiiy yutuqlariga tarixiy haqiqatning sovuq nuridan qaralsa ham, hayratlanarli jihatlari kam emas” [Annemarie Schimmel. 2004] Bobur barpo ettirgan ishootlar, xususan, u ko'targan masjidlarning bugungacha saqlanib qolgan “Qobuliy bog”, “Sambhal” va “Ayodhiya” masjidlari, boburiylar tomonidan ko'tarilgan ko'plab inshootlar, shu jumladan, Tojmahal bugun barchanining e'tiborida.

Bobur faoliyatining turli qirralari ko'plab olimlar, tadqiqotchilarini uzoq vaqtlardan buyon o'ziga jalb etib kelmoqda. “Boburnoma”da ko'tarilgan masalalar ko'lami kabi unga bag'ishlangan tadqiqotlar doirasi ham keng. Adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, etnografiya, agrar, harbiy va yana o'nlab soha mutaxassislari “Boburnoma”ni jahon tamadduni taraqqiyoti bilan bog'lab o'rghanadilar. Jumladan, ko'pchilikni maftun etgan, “Boburnoma”da mehr bilan tasvirlangan Bobur bog'larini hind olimi doktor Mohendra Randhava “Asrlar osha yashab kelayotgan bog'lar” asarida maxsus o'rghanadi. Boburning Kobulda barpo etgan bog'lari, Hindistondagi bog'lari, boburiylar barpo etgan bog'lar olim uchun eng sevimli mavzulardan edi.

Mohendra Randhava bu asarida insoniyat madaniyati taraqqiyoti tarixida bog'dorchilik va gulchilikning o'rni yuzasidan izlanishlar olib borar ekan, uning maxsus bobini "Bobur bog'lari" deb nomlaydi. Islom madaniyatining Hindiston madaniy hayoti boyishiga ta'siri haqida so'zlab, jumladan, bog'dorchilik va gulchilik haqida "Hindistonga mo'g'ullar kelguniga qadar (Bobur va uning avlodlari nazarda tutilmoqda) bog'dorchilik san'ati tarixi mutlaqo mavjud emas edi. 1504-yili Kobulni egallagan Bobur o'zining sevimli mashg'uloti – bog'lar barpo qilishga berildi" [Рандхава 1981, 119], deydi. "Bog'i Shahroro", "Bog'i Jahonoro", "Chorbog" "O'rtabog", "Bog'i Vafo", "Bog'i Mohtob", "Bog'i Ohuxona" va "Bog'i Bobur" deb nomlangan o'nlab bog'larning barpo etilishini muallif "Boburnoma"dagi tafsilotlar bilan tushuntirib beradi – bu bog'larni barpo etish jarayonidagi qizg'in ishlari haqida yozadi. Boburning Hindistondagi g'alabasi – Panipat jangidan keyin mana shu Panipatning o'zida bog' barpo etishni buyurishi uning obodonchilik sohasidagi faoliyatini va albatta, ma'naviy qiyofasini namoyon qilishini ta'kidlaydi. Chindan, Boburning xalqni bunday yaratuvchilik ishlariiga safarbar qilish taktikasi necha asrlarki, insoniyatni ruhlantirib keladi.

Hindiston tabiatini, ayniqsa, undagi suv inshootlari va sug'orish ishlari bilan bog'liq masalalarni yaxshi bilgani bois olim bu masalada Boburning katta mehnatinini mehr bilan eslaydi.

Bu masalada V. N. Morlendning "Musulmon Hindistonining agrar tizimi" kitobi e'tiborni tortadi. Muallif Hindistonning qishloq xo'jaligi va sug'orish inshootlari haqida so'z yuritar ekan, Boburning bu sohani taraqqiy ettirishdagi xizmatlari haqida gapirib, uning Sharqdagi o'zga yurtlarni egallahga muvaffaq bo'lgan hukmdorlar orasida insonparvarligi bilan ajralib turishini ta'kidlaydi: *Odamlar uning boshqa masalalardagi ishlari haqida nima deb o'ylashlaridan qat'i nazar, biz katta qalb egasi bo'lgan ochiqko'ngil bu ulug' zotga chuqur insoniy mehr bilan qaraymiz* [Moreland 1929, 79].

Bobur asarlarini tadqiq etish, ilmiy muomalaga olib kirish rus boburshunosligida ham eng asosiy masalalardan hisoblanadi. Boburni o'rganish **1857**-yili Nikolay Ilminskiy sa'y-harakatlari bilan boshlangan bo'lsa, keyinchalik Bobur asarlarini o'rganish rus sharqshunoslarning eng muhim va sevimli ishiga aylandi. Uning asarlarini nashr etish, tarjima qilish va o'rganishni ingliz va rus sharqshunoslari uchun burch, sharaf va saodat deb bilgan Aleksandr Samoylovich shoirning "Majmuai ash'ori Bobur podshoh" deb nomlangan she'riy to'plamini nashr qiladi va ularning rus tilidagi tarjimasini taqdim etadi. "Men – Majnunman, Turkiston – men uchun Laylo" deb o'ziga ta'rif bergan bu sharqshunos olimning Bobur ijodini tadqiq etishdagi o'rni muhim. Bobur ijodini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rgangan olim Galina Blagova "Boburnoma"ning Rossiyada o'rganilishi tarixiga doir" [Гулистон 1990, 12] maqolasida Bobur ijodini o'rgangan olimlar ishlarini tadqiq etadi. 1950-yillarda M. Salye tomonidan rus tiliga tarjima qilingan "Boburnoma" bugun ko'pchilikning sevimli asariga aylangan.

Ikkinchi jahon urushi yillari Samarqandda yashagan va shu yerning maktablarida ta'lim olgan va keyinchadik o'z yurtida tahsilini davom ettirib, olimlik rutbasiga yetishgan Iya Stebleva esa: "Men Boburni, uning she'riyatini hech qachon tark etmaganman. Men Bobur bilan xayolan doimiy hamrohman. Men doim Bobur

bilan birgaman. Biz u bilan do'stmiz. U meni doim qo'llab-quvvatlab turadi" [Стеблева 2020], deydi.

Chindan, Bobur shaxsi, badiiy tafakkuri va mahorati, uning irfoniy, adabiyyestetik qarashlarini yaxlit tasavvur etishga imkon beradigan manbalar – Boburning o'z asarlari. Ularni tadqiq va targ'ib etish uchun o'zbek olimlari ham imkoniyatdan samarali foydalanishi kerak.

### **Adabiyotlar**

- Annemarie Schimmel. 2004. *The Empire of the Great Mughals: History, Art and Culture*. Reaktion Books.
- Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2002. *Бобурнома*. Тошкент: "Шарқ" НМАК Бош таҳририяти.
- Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2008. *Бобурнома*. Тошкент: "Шарқ" НМАК Бош таҳририяти.
- Ия Стеблева, 2020. "Мен доим Бобур билан биргаман". Туркийшунос олима Ия Стеблева билан сұхбат. *Жаҳон адабиёти 2*.
- Moreland W. H. 1929. *Agrarian System of Moslem India*. Central Book Depot.
- Неру, Жавахарлал. 1981. *Взгляд на всемирную историю*. Москва: Прогресс.
- Рандхава М. 1981. *Сады через века*. Сокращенный перевод с английского Л. Д. Ардашниковой. Москва: Знание.
- Самойлович А. Н. 2005. *Тюркское языкознание. Филологи. Руника*. Москва: Восточная литература.
- Steell A.F. 1912 *King – Errant*, Frederick A. Stokes Company.

## **KOBULDA SHOH BO'LMIHDUR HAZRATI BOBUR**

Azizulloh Arral\*

### **Annotatsiya**

Qirq yetti yillik umrining chamasi yigirma besh yili Kobul bilan bog'liq bo'lgan Zahiruddin Muhammad Bobur XVasr oxiri va XVI asr boshlarida Kobulning shoh shoiri sifatida nom qozongan. Zahiruddin Muhammad Bobur ota tomonidan Amir Temurga, ona tomonidan Chingizzonga yetib borishiga qaramay, u o'zining mashhur "Bobur Tuzuki" kitobida bu ikki munosabatni eslatib o'tadi va o'zini Turk (O'zbek) deb ataydi. O'zbek Bobur o'zbek Shayboniyxondan bir necha bor mag'lubiyatga uchragach, o'z omadini Kobulistonda sinab ko'rish maqsadida Farg'onadan hozirgi Afg'oniston poytaxti bo'l mish Kobulga ketishga majbur bo'ladi.

Bu yerda Kobul (Kobuliston) xalqi Boburni mammuniyat bilan kutib oladi va Bobur Kobulning O'zbek podshosiga aylanadi hamda u yerdan o'z hukmronligini kengaytirish uchun Hindistongacha boradi. Bu jasur jahonshumul Turk/O'zbek jahongiri zukko shoир, zabardast yozuvchi va kuchli hukmdor – shoh bo'lган. Bobur Kobulda shohlik tojini boshiga qo'yanida 22 yoshida bo'lган va o'shandan buyon Boburshoh deb atala boshlangan.

---

\* O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi.

## MUNDARIJA CONTENTS

<b>Shuhrat SIROJIDDINOV.</b> Babur: a ruler, poet and encyclopedist scientist	5
<b>Franko KARDINI.</b> Великий правитель, любящий искусство слова или великий поэт, любящий царство	15
<b>I SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA FAOLIYATI, DAVLATCHILIK SIYOSATI</b>	
<b>PANEL I. THE LIFE, ACTIVITIES, AND STATEHOOD POLICIES OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR</b>	
<b>Zokirjon MASHRABOV.</b> Bobur – sayyoh va tabiatshunos olim	22
<b>Stephen Frederic DALE.</b> Babur's Timurid Sultanate	25
<b>Nurboy JABBOROV.</b> Bobur – kamolot timsoli	41
<b>Kemal Yavuz ATAMAN.</b> Global/Küresel Bir Lider Portresi: Babür Şah	49
<b>Vahob RAHMONOV.</b> Bobur qilmagan vasiyat muammosi	58
<b>Mehmet AÇA.</b> Babür Üzerinden Bir Kahramanlık Okuması	61
<b>Sultonmurod OLIM.</b> Bobur hayatı, e'tiqodi va ijodida tasavvufning o'rni va ahamiyati	67
<b>Ramiz Əskər.</b> Babur fenomeni	74
<b>Abdumajid MADRAIMOV.</b> Taqdir, tarix va tasvir (Boburning g'aroyib taqdiri, tarixi va tasviri)	78
<b>Karomat MULLAXO'JAYEVA.</b> Hukmdorlarga o'rnak bo'ladigan, dunyo olimlari havas qiladigan umr e'tirofi	82
<b>Azizullah ARRAL.</b> Kobulda shoh bo'l mishdur hazrati Bobur	89
<b>Botir YULDASHEV.</b> Boburiylar davlatida yerga egalik qilishning jogird tizimi	94
<b>Azizjon SHARIPOV.</b> "Boburnoma"da Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy-harbiy faoliyatiga doir ma'lumotlar (Hindiston fathi misolida)	101
<b>Avazbek MIRZAYEV.</b> Zahiriddin Muhammad Boburning tabiatshunuslikka oid qarashlari	114
<b>Quvonch EHSONULLO.</b> Afg'onistondagi Bobur bog'inining tarixiy va bugungi holati	117
<b>Erkin Mohammad Aalim.</b> Zahiriddin Muhammad Boburning Afg'onistondagi hokimiyati va obodonchilik sohasida amalga oshirgan ishlari	124
<b>II SHO'BA. BOBURIYLAR IMPERIYASIDA FAN VA SAN'AT TARAQQIYOTI</b>	
<b>PANEL II. THE IMPACT OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S LITERARY LEGACY ON THE ADVANCEMENT OF GLOBAL AESTHETIC THOUGHT</b>	

<b>Abdurrahman GÜZEL, Ali Fuat BILKAN.</b> Babürlü Kuzey Hindistanında Ali Şîr Nevâyî Tesiri	129
<b>Almaz ÜLVİ (BİNNATOVA).</b> İki qüdrətli şah – iki şöhrətli şair ( <i>Şah Ismayil Xətai-566 və Zahirəddin Məhəmməd Babur-540</i> )	135
<b>Jaloliddin JO'RAYEV, Gulsanam XOLIQULOVA.</b> Abulvajd Forig'iy va uning adabiy merosi	137
<b>Sebahat DENİZ.</b> Büyük Türk Hakanı Babür'ün ve Neslinin Türk Edebiyatının Gelişmesindeki Rolü	147
<b>Ilyos ISMOILOV.</b> "Boburnoma"da shuaro zikri	148
<b>Nodira ALLAMBERGENOVA.</b> Komron Mirzo – Bobur she'riyatining munosib vorisi	152
<b>PANEL III. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARINING ADABIY-ESTETIK, ANTROPOLOGIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI</b>	
<b>PANEL III. THE LITERARY, AESTHETIC, ANTHROPOLOGICAL, AND LINGUACULTURAL CHARACTERISTICS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S WORKS</b>	
<b>Qosimjon SODIQOV.</b> Boburning til bilimi borasidagi qarashlari	157
<b>Tanju Oral SEYHAN.</b> Babur Şah ve Kültür Politikasında Türk Dili ve Edebiyatının Yeri	169
<b>Farhad RAHIMI.</b> Çağatay Sözlüklerinde Bābür Şah Tanıkları Üzerine	182
<b>Ziyodaxon TESHABOYEVA.</b> Tibbiyot terminlarining "Boburnoma"da aks etishi va ingлизча tarjimalari	197
<b>Süveyda ŞAHİN, Nergis BİRAY.</b> Babur Divanında Geçen Organ Adlerıyla Yapılmış Deyimler	206
<b>Muqaddas ABDURAHMONOVA.</b> Omonimiya – turkiy tillarga xos semantik imkoniyat sifatida	214
<b>Alisher MAMAJONOV, Abduvohid ALISHEROV.</b> Bobur ma'naviy-axloqiy ruhiyati – yoshlarga ibrat	219
<b>Tohir TURDIBOYEV.</b> Bobur g'azallaridagi bog'lovchilarning pleonastik xususiyati	225
<b>Sayyora SHODMONOVA.</b> "Boburnoma"dagi vaqt o'lchov birliklari leksemalarining ingлизча tarjimalarda qayta tiklanishi	228
<b>IV SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE'RIYATINING O'RTA ASRLAR VA ZAMONAVIY ADABIY JARAYON TAKOMILIDAGI O'RNI</b>	
<b>PANEL IV. THE ROLE OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S POETRY IN THE DEVELOPMENT OF MEDIEVAL AND MODERN LITERATURE</b>	
<b>Bilâl YÜCEL.</b> Zahîrüddin Muhammed Babur'un Rubaisindeki Matematik Sanatı	238
<b>Nusratullo JUMAXO'JA.</b> Bobur forsiy she'rularining badiiyati	247
<b>Mehmet SARİKÖSE.</b> Babür Divani'nda Şahsiyetler	254
<b>Iqboloy ADIZOVA.</b> Bobur ijodida kichik masnaviy janri	265

<b>Usmon QOBILOV.</b> Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida mumtoz an'anaviy obrazlar talqini	<b>275</b>
<b>Dilnavoz YUSUPOVA.</b> Aleksandr Mixaylovich Shcherbak – “Aruz risolasi”ning tadqiqotchisi	<b>278</b>
<b>Orzigul HAMROYEVA.</b> Bobur ruboilyarida vazn va qofiya uyg'unligi	<b>285</b>
<b>Aida BUMATOVA.</b> “Boburnoma”dagi she'riy namunalar tarjimasida obrazlar	<b>289</b>
<b>Şəhla MƏCIDOVA.</b> Babur poeziyasında sevgi qasidi səba	<b>293</b>
<b>Jamila EISAR.</b> Bobur she'riyatida folkloрning o'rni	<b>294</b>
 <b>V SHO'BA. “BOBURNOMA”NING ADABIY-LINGVISTIK VA TARIXIY-SOTSIOLOGIK TALQINLARI</b> <b>PANEL V. THE LITERARY, LINGUISTIC, HISTORICAL AND SOCIOLOGICAL INTERPRETATIONS OF "BABURNAMA"</b>	
<b>Hamidulla DADABOYEV.</b> XVI asr o'zbek tili so'z boyligi taraqqiyotida Boburning o'rni	298
<b>Islam JEMENEY.</b> “Boburnoma”da qozoq, qozoqlik va turkiy el haqidagi qarashlar	302
<b>Дарья Жигульская.</b> «Бабур-наме» как исторический источник в исследованиях профессора Т.И. Султанова	310
<b>Muhittin GÜMÜŞ.</b> Türkiye'de Bâbürnâme Üzerine Çalışmalara Kısa Bir Bakış	314
<b>Zulkumor XOLMANOVA.</b> Bobur – semantikaning sohir bilimdoni	325
<b>Muhterem SAYGIN.</b> Zahîrüddin Muhammed Bâbürün Hatıratında Ali Şîr Nevâyî'nin Sosyal Çevresi ve Kişiliği	332
<b>Rukhsana Iftikhar.</b> Socio-Cultural Legacies of Central Asia in Tuzuk -i-Baburi	337
<b>Akramjon DEHQONOV.</b> “Boburnoma”da Boburga zamondosh temuriy hukmdorlar portretining yaratilishi	344
<b>Байболот АБЫТОВ.</b> «Бабур намә» как комплексный источник по истории востока: преимущества и проблемы	349
<b>Muxtor MIRZOAHMEDOV.</b> “Boburnoma”da ma'muriy-boshqaruв tizimiga doir huquqiy atamalarning qo'llanishi	356
<b>Omonullo BO'RIYEV.</b> “Boburnoma”da Hirotning tarixiy-geografik tavsifi	361
<b>Батырхан БОЛАТБЕК, Кастер САРҚЫТКАН.</b> Великие наследие тюркского мира – Бабырнама и казахская духовность	366
<b>Махмадшо МАХМАДШОЕВ.</b> Таъассуми шахсиятҳои адабӣ, илмӣ ва ҳунарӣ дар “Бобурнома”-и Заҳируддин Муҳаммад Бобур	373
<b>Ilhom ASLONOV.</b> “Boburnoma” kompozitsiyasi va uslubida muallif psixologik holatlarining aks etishi	384
<b>Elmira HAZRATQULOVA.</b> Tarixiy asarlarda valiylargal munosabat	389
<b>Mahliyoxon TUXTASINOVA.</b> Bobur asarlarining L. Budagov lug'atida aks etishi	401

**VI SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIY-ILMIY  
MEROSINING FILOLOGIK ASPEKTI**  
**PANEL VI. THE PHILOLOGICAL ASPECT OF ZAHIRIDDIN  
MUHAMMAD BABUR'S LITERARY AND SCIENTIFIC HERITAGE**

<b>Baxtiyor FAYZULLOYEV.</b> Adabiy ta'limda "Boburnoma"ni o'rganish masalalari	406
<b>Ne'matilla OTAJONOV.</b> The problem of filling up blanks (gaps, lacuna) in Babur's "Baburname" (Memoirs)	410
<b>Otabek JO'RABOYEV.</b> Zahiriddin Muhammad Boburning jahon qo'lyozma fondlaridagi asarlari haqida	416
<b>Shuhrat HAYITOV.</b> "Boburnoma"ning yangi tarjimalari xususida	423
<b>Elçin İBRAHİMOV.</b> Zahîrüddîn Muhammed Babürün "Baburname" Eserinin Türkçe'ye Katkıları	429
<b>Marg'uba ABDULLAYEVA.</b> "Boburnoma" tadqiqotlar obyekti sifatida	432
<b>Ahmet AKALIN.</b> Türkiye'de Babür Araştırmaları: Doktora ve Yüksek Lisans Tezleri Üzerine Betimsel Bir Araştırma	438
<b>Shaxlo NARALIYEVA, Xulkar XAMRAYEVA, Salimjon G'ANIYEV.</b> Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida yuritiladigan umumta'lim mакtablarida Bobur ijodini o'rganishning innovatsion usullari	443
<b>Jo'ra XUDOYBERDIYEV.</b> Boburiy xat va unda bitilgan Qur'on: topilishi, dastlabki tadqiqotlar	448
<b>Muso TOJIBOYEV.</b> Bobur ijodiy merosining germenevtik konsepsiysi	455
<b>Gulnoza JO'RAYEVA, Farrux QULSAXATOV.</b> "Boburnoma" asarini o'qitishda integrativ yondashuv	459
<b>Oysara MADALIYEVA.</b> "Boburga oid manbalar" daftari xususida (Abdulla Nosirov, O'zR FA ShI asosiy fondi № 13395)	455
<b>Ozoda TOJIBOYEV.</b> "Boburnoma" biografik manba sifatida	469
<b>Dilafruz MUHAMMADIYEVA.</b> "Boburnoma"ning elektron platformasini yaratish – davr talabi	474
<b>Sirdaryoxon O'TANOVA.</b> "Boburnoma"ning ozarbayjoncha tarjima-kitoblari haqida ayrim mulohazalar	481

**VII SHO'BA. BOBUR VA BOBURIYLAR SIYMOSINING ZAMONAVIY  
ADABIYOTDAGI BADIY TALQINI, ADABIY TA'SIR VA IZDOSHLIK  
MASALALARI**

**PANEL VII. THE PORTRAYAL OF BABUR AND BABUR STUDIES  
SCHOLARS IN MODERN LITERATURE, ISSUES RELATED TO LITERARY  
INFLUENCE AND FOLLOWERSHIP**

<b>Bahodir KARIMOV.</b> "Boburnoma" va "O'tkan kunlar" romani qiyosiga doir ayrim mulohazalar	487
<b>Афтандил ЭРКИНОВ.</b> Легитимация вымысла в Кокандском ханстве при Умар-хане (1810-1822): как "Бахтияр-нама" Дакаики Самарканди легло в основу легенды об "Алтун бишик"	495
<b>To'lqin ESHBEKOV.</b> Xayriddin Sultonning "Boburiynoma" ma'rifiy romanida ma'rifat sarchashmasi	513

<b>Yulduz KARIMOVA.</b> Bobur Mirzo shaxsiyati va ijodi jadidlar nigohida	<b>520</b>
<b>Sabohat BOZOROVA.</b> Babürnâme Esasında Yazılmış Özbek Tarihî Hikayeleri	525
<b>Azamat ZARIPOV.</b> Bobur nazmiy an'analarining Abdulla Oripov she'riyatidagi poetik sintezi	534
<b>TEZISLAR</b>	
<b>Mardon RAHMATOV.</b> "Boburnoma" asarida kiritma iboralar	540
<b>Shaxnoza ASQAROVA.</b> "Alpomish" va "Boburnoma"dagi onomastik birliklar tahlili masalasi	545
<b>Yulduz ABDULHAKIMOVA.</b> Navoiy va Bobur ijodida masnaviy	547
<b>Gulzoda SOATOVA.</b> Bobur va jadidlar ijodida vatanparvarlik g'oyalari mushtarakligi	550
<b>Zarnigor DAVRONOVA.</b> "Boburnomada" keltirilgan antroponimlarning o'ziga xos xususiyatlari	554
<b>Ёркиной Алтмишева.</b> О переводе исламских юридических терминов «Бабурнаме» на русский язык	556
<b>Gulsanam ABDAZOVA.</b> "Boburning bir jumlesi" ingliz tarjimonlari talqinida	559
Tohirjon QOZOQOV. "Boburnoma"da Umarshayx Mirzoning poytaxti Axsining tasvirlanishi	561

**ILMIY NASHR**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MERO SINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**uluslararo ilmiy-nazariy  
konferansi materiallari**

**Toshkent - 2023**